

YOSHLARDA MILLIY TUYG‘U VA TARBIYA UYG‘UNLIGINI YANADA RIVOJLANTIRISH

Abdurazoqova Mahliyoxon Mahmudovna

Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani 31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tatbiq eta oladigan yetuk, malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi. Maktab ta’limining hozirgi bosqichida o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash, o‘sib kelayotgan avlodning ta’lim va tarbiyasidagi eng zarur vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki mehnat har qanday rivojlanish va taraqqiyot jarayonining asosidir. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo‘l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta’limi jarayoni o‘quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan. Milliy pedagogik tajribamizda o‘quvchilarda ahloqiy fazilatlarini shakllantirish bo‘yicha o‘ziga xos tajribalar mavjud. Bunday tajribalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ahloqiy fazilatlarini shakllantirishning yangicha yondashuvlari, vositalari va shakllarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Chunki jamiyatimizning hozirgi innovatsion rivojlanish jarayoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ahloqiy jihatdan faollashtirishni taqozo etadi. Bundan tashqari, bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nafaqat savodxonlik, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallamoqda, bulki ular ta’limning keyingi bosqichlariga ham tayyorlanmoqda. Negaki mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari umumiy o‘rta, maxsus ta’lim muassasalari va Prezident maktablarida o‘qish imkoniyatlariga ega. Bu hol boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ahloqiy fazilatlarini yuksak darajada bo‘lishini taqozo etadi.

Bugungi kunga kelib, inson fe‘l-atvorining barcha ko‘rinishlariga ega bo‘lganligi haqidagi fikr aniqlangan erda bolalik. Hozirgi vaqtda shaxsiy xususiyatlarning uchta asosiy guruhi qo‘yiladi. Hayot davriga qarab, boshqa odamlar bilan muloqot qilish usullari, xulq-atvor uslublari va vositalarining shakllanishi mavjud. Jahon ta’lim tizimida ta’lim oluvchilarni har tomonlama tarbiyalash va ularni bugungi kun ehtiyojlariga mos ravishda voyaga yetkazish jarayoni kechmoqda. Bunda rivojlangan davlatlarning ta’lim oluvchilarda ahloqiy fazilatlarini shakllantirish bo‘yicha ustuvor munosabatlar tarkib topganligini ta’kidlash joiz. Chunki xalqlarning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida shaxsning ahloqiy fazilatga ega bo‘lishi masalasi ilk rejaga chiqmoqda. Shu sababli xalqaro ta’lim dasturlarida ham ta’lim oluvchilarda eng yuksak va ideal ahloqiy fazilatlarini tarkib toptirish talabalari belgilangan. Mazkur jarayon davlatlarning milliy ta’lim tizimiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu o‘quvchi yoshlarda milliy ong va tafakkurni rivojlantirish uchun eng yaxshi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Pedagoglarning tarbiya borasidagi eng muhim jihatlaridan biri yoshlarda Vatanga va oilaga bo‘lgan mehr muhabbatni ularning onglarida chuqur singdirish va amaliyotda tatbiq etishdan iboratdir.